

RUS TILSHUNOSLIGIDA PSIXOLINGVISTIK TADQIQOTLAR
ПСИХОЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В РУССКОЙ
ЛИНГВИСТИКЕ
PSYCHOLINGUISTIC RESEARCH IN RUSSIAN LINGUISTICS
MUHAMMADJON MAMAJONOV
muhammadjon706@mail.ru

Chet tillari fakulteti dekani, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Annotatsiya: Psixolingvistika matnni yaratish va tushunish jarayonlarini, bu jarayonlarning ijtimoiy va kommunikativ sharoitlarini, ekstraliningvistik omillarni va qo‘llaniladigan lingvistik vositalarning psixologik ahamiyatini hisobga olgan holda o‘rganadi. Shu bilan birga, matn lingvistik va ekstraliningvistik voqelik hodisasi sifatida turli funktsiyalarni bajaradigan murakkab hodisadir: u aloqa vositasi, ma’lumotni saqlash va uzatish usuli, shaxs aqliy hayotining aksidir, ma’lum bir tarixiy davr mahsuli va madaniyatning mavjudligi shakli va muayyan ijtimoiy-madaniy an’analarning aksi. Bu matn ta’riflarining xilma-xillagini va unga yondashuvlarning xilma-xillagini belgilaydi.

Kalit so‘zlar: psixolingvistika, matn, ekstraliningvistik voqelik, fonologik maktab, psixologik qonuniyatlar

Abstract: Psycholinguistics studies the processes of text creation and understanding, taking into account the social and communicative conditions of these processes, extralinguistic factors and the psychological significance of the used linguistic tools. At the same time, the text as a phenomenon of linguistic and extralinguistic reality is a complex phenomenon that performs various functions: it is a means of communication, a method of storing and transmitting information, a reflection of the intellectual life of a person, a product of a certain historical period and a form of existence of a culture and a certain socio-cultural the opposite of tradition. This determines the variety of definitions of the text and the variety of approaches to it.

Key words: psycholinguistics, text, extralinguistic reality, phonological school, psychological laws

Аннотация: Психолингвистика изучает процессы создания и понимания текста с учетом социальных и коммуникативных условий этих процессов, экстралингвистических факторов и психологической значимости используемых языковых средств. В то же время текст как явление языковой и экстралингвистической реальности представляет собой сложное явление, выполняющее разнообразные функции: это средство общения, способ хранения и передачи информации, отражение интеллектуальной жизни человека, продукт определенного исторического периода и формы существования культуры и определенной социокультурной противоположности традиции. Это определяет разнообразие определений текста и разнообразие подходов к нему.

Ключевые слова: психолингвистика, текст, экстралингвистическая реальность, фонологическая школа, психологические законы.

Matnni idrok etishning psixolingvistik modelini qurish matnning mazmuni va rasmiy xususiyatlarini ham, turli xil qabul qiluvchilar tomonidan matnni idrok etishning psixologik qonuniyatlarini hisobga olishga asoslanishi kerak.

Rus tilshunosligida psixolingvistikaning Peterburg va Moskva psixolingvistik maktablari e’tirof etiladi.

Peterburg psixolingvistik maktabining asoslari Boduen de Kurtene tomonidan qo‘yilgan, keyinchalik uning shogirdi L.Shcherba tomonidan davom ettirilgan. L.Shcherba Leningrad fonologik maktabi asoschisi sifatida eksperimental fonetik laboratoriyasini yaratdi. L.Shcherba tilshunoslikda tajribalar o’tkazish muhimligini e’tirof etib, tirik tillarni o‘lik tillar tamoyillari asosida tadqiq qilmaslik zarurligini, tirik tillarni eksperimentlar asosida qo‘lga kiritilgan dalillar asosida baholash zarurligini ta’kidlaydi. Demak, L.Shcherbaning ilk g‘oyalari va fonetik eksperimentlar laboratoriyası eksperimental psixolingvistikaning taraqqiyoti uchun xizmat qilgan.

XX asrning 70-yillariga kelib L.Saxarniy tadqiqotlari Peterburg psixolingvistik maktabining rivoji uchun xizmat qildi. L.Saxarniy psixolingvistika bo‘yicha ma’ruzalar o‘qigan va 80-yillarning ikkinchi yarmida turmush o‘rtog‘i A.Shtern bilan birgalikda shahar miqyosida psixolingvistik seminar tashkil qilgan. 1989-yilga kelib esa L.Saxarniy “Введение в психолингвистику: Курс лекций” nomli darslik chop ettirdi.

Moskva psixolingvistik maktabi rivoji esa bevosita A.Leontyev nomi bilan bog‘liq. A.Leontyev XX asrning 60-yillaridan psixolingvistika bilan shug‘ullana boshlagan. Olimning tadqiqotlati nutq faoliyatini psixolingvistik modellashtirish, muloqot psixologiyasi masalalariga bag‘ishlangan bo‘lib, u TPA – теория речевой деятельности (nutqiy faoliyat nazariyasi)ni rivojlantirishga hissa qo‘shgan. 1966-yilda A.Leontyev tomonidan psixolingvistikaga bag‘ishlangan ilk seminar tashkil etildi. Shundan so‘ng Moskva psixolingvistik maktabi taraqqiy topib, soha doirasida dissertatsiyalar himoya qilina boshladi. Xususan, I.Ilyasovning tadqiqoti Jorj Millerning tajribasini qo‘llash orqali transformatsion modelning psixologik jihatlarini yoritishga bag‘ishlangan. Y.Tarasov, R.Frumkina, K.Sedov, I.Gorelov, N.Ufimseva, O.Fedorova kabi tilshunoslarning tadqiqotlari ham Moskva psixolingvistik maktabi yutuqlari sifatida baholanishi mumkin.

Shunday qilib, rus tilshunoslida ham psixolingvistik tadqiqotlarga qiziqish ortib bordi, bugungi kunda ham qator tadqiqotlar amalga oshirilmoqda, rus psixolingvistikasida eksperimentlar orqali tilning nazariy masalalarini yoritishga keng ahamiyat beriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Балансникова О. В., Уфимцева Н. В. Стратегии актуализации категории эго в языковом сознании русских (по данным ассоциативного эксперимента). Вопросы психолингвистики, 2018, 4 (38): 14–33.
2. Федорова О. В. Об экспериментальном синтаксисе и о синтаксическом эксперименте в языкоznании.
3. Фрумкина Р. М. Цвет, смысл, сходство. М.: Наука, 1984;

4. Горелов И. Н. Невербальные компоненты коммуникации. –М.: Наука, 1980;
5. Ильясов И. И. Эксперимент Дж. Миллера по проверке психологической реальности трансформационной модели (анализ методики). Психология грамматики. Леонтьев А. А., Рябова Т. В. (ред.). –М.: МГУ, 1968, 50–66.
6. Леонтьев А.А. О работе проблемной группы психолингвистики Института языкоznания АН СССР. Психологические и психолингвистические проблемы владения и овладения языком.
7. Овчинникова И.Г., Сахарный Л.В., Штерн А.С. Вопросы психолингвистики, 2006, 4: 32–36;
8. Седов К. Ф. (ред.). Возрастная психолингвистика: хрестоматия. М.: Лабиринт, 2004;
9. Тарасов Е. Ф. Предисловие. Вопросы психолингвистики, 2006, 4: 4;
10. Шхапацева М.Х. Коммуникация в зеркале психолингвистики//
<https://cyberleninka.ru/article/n/kommunikatsiya-v-zerkale-psiholinguistiki>
11. Щерба Л. В. О трояком аспекте языковых явлений и об эксперименте в языкоznании. Языковая система и речевая деятельность. Щерба Л. В. –Л.: Наука, 1974. –С. 24–39.